



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
O‘ZBEK TILINI RIVOJLANTIRISH JAMG‘ARMASI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI DAVLAT
TILIDA ISH YURITISH ASOSLARINI O‘QITISH VA MALAKA OSHIRISH
MARKAZI**

“DAVLAT TILI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

**“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2025**

UO‘K: 494.375

KBK: 81.633.1

D 26

Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar [Matn]: to‘plam / Sh.Sirojiddinov.
– Toshkent: Bookmany print, 2025. – 450 b.

Mazkur to‘plam “Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar” mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumaniga tilshunos olimlar, vazirlik, idoralar, mahalliy ijro etuvchi organlarning davlat tili bo‘yicha maslahatchilari hamda tadqiqotchilar tomonidan yuborilgan materiallardan tashkil topgan. Undagi maqolalarda davlat tilining dolzarb muammolari, ularni hal qilish bo‘yicha takliflar, yechimlar berilgan. To‘plam tilshunoslar, professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar, magistrlar va talabalar uchun mo‘ljallangan.

(Maqolalarning ilmiy saviyasiga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar).

Mas’ul muharrir:

Sh.Sirojiddinov, filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

I.Azimov, filologiya fanlari doktori, professor

A.Eminov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

B.Jo‘rayeva, filologiya fanlari doktori, professor

M.Abdiyev, filologiya fanlari doktori, professor

F.Bobojonov, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Saparniyozova, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Hakimova, filologiya fanlari doktori, professor

M.Umirzoqova, filologiya fanlari doktori, dotsent

H.Yodgorov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

H.Suyunov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

N.Quldashev, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi Ilmiy-metodik kengashida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-06-774-7

© “Bookmany print” nashriyoti, 2025.

	qorbo‘ron qo‘lqop	narsa oti+narsa oti narsa oti+narsa oti
salon	avtosalon	narsa oti+o‘rin-joy oti
saroy	zoopark	narsa oti+o‘rin-joy oti
sovg‘a	qorbobo	narsa oti+shaxs oti
o‘rmon	ayiqpolvon chiyabo‘ri	narsa oti+shaxs oti narsa oti+narsa oti

(Mazkur misollar Toshkent shahrining Yunusobod tumanidagi 221-, 288-sonli maktabgacha ta’lim tashkilotlarining 3-7 yoshli tarbiyalanuvchilari bilan o‘tkazilgan assotsiativ tajribalar davomida kuzatildi)

Keltirilgan misollarga ko‘ra, maktabgacha yoshdagi bolalar tomonidan aksariyat hollarda yuqoridagi so‘zlarga *narsa oti+narsa oti* tarkibiy tuzilishiga ega qo‘shma otlar orqali javob berilgan. Ta’kidlash joizki, *o‘rmon* so‘ziga nisbatan taqdim etilgan **chiyabo‘ri** javob reaksiyasida ham ayni shu holat kuzatilgan. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” (Ўзбек тилининг изоҳли луғати 3-жилд, 2006, 481-бет.)ga ko‘ra, *chiyabo‘ri* so‘zi tarkibidagi *chiya* so‘zi o‘simlik ma’nosini bildirib, mazkur leksema bo‘rilarning o‘simlik va butalar orasida yashovchi hamda ular bilan oziqlanuvchi turiga nisbatan qo‘llanadi. **Qorbola**, **ayiqpolvon** javoblarida *narsa otiga shaxs otlari*, **xonqizi** reaksiyasida esa *shaxs otiga shaxs oti* qo‘shilishi natijasida kompozitsiya usuli orqali qo‘shma ot leksemalar yasalishi yuz bergan. **Avtosalon**, **zoopark** so‘zlari tarkibidagi birinchi qism xorijiy tildan o‘zlashtirilgan bo‘lsa-da, mazkur so‘zlarni *narsa oti+o‘rin-joy oti* qolipi asosida yasalgan qo‘shma so‘z sifatida qabul qila olamiz.

Ism+fe’l konstruktiv tuzilishiga ega javoblarni *dangasa* so‘ziga berilgan reaksiyalar tahlilida kuzatish mumkin. *Dangasa* stimuliga qo‘shma so‘z shaklida berilgan javoblarning umumiy miqdori 32 ta bo‘lib, ularning barchasi ot, sifat va olmosh turkumidagi so‘zlarga **qil**, **et**, **bo‘l** yordamchi fe’llarini qo‘shish orqali kompozitsiya usuli bilan yasalgan qo‘shma fe’llar sanaladi. Morfologiyaga oid nazariy adabiyotlardagi ma’lumotlarga ko‘ra, fe’l bo‘lmagan so‘zlarga **qilmoq**, **etmoq**, **aylamoq**, **bo‘lmoq**, **bermoq**, **olmoq**, **topmoq**, **yemoq**, **urmoq**, **ko‘rmoq**, **kelmoq**, **keltirmoq** yordamchi so‘zlarini qo‘shish orqali qo‘shma fe’l yasalishi mumkin (Sayfullayeva va b., 2009, 192-bet). Shunga ko‘ra, *dangasa* so‘ziga nisbatan berilgan **ish qimiydi (qilmaydi)** (14 ta), **hech narsa qimiydi** (4 ta), **to‘polon qiladi** (3 ta), **dangasalik qiladi** (2 ta), **hech narsa qilmaydigan** (2 ta), **ish qilmaydigan** (2 ta), **ish qilmaslik** (1), **dars qimiydi**, **dangasa bo‘lish**, **qiliq qiladi** (1ta) kabi javob reaksiyalarini struktur jihatdan qo‘shma fe’l sifatida qabul qilish to‘g‘ri sanaladi. Yuqorida keltirilgan misollar morfologik jihatdan fe’l so‘z turkumiga mansub bo‘lsa,

ro'za stimuliga nisbatan berilgan **og'izochar** (Abdurahmon Mirhomidov, 5 yosh) reaksiyasi qo'shma ot hisoblanadi. Mazkur birlik *ot+fe'l* qolipi asosida yasalgan bo'lib, keltirilgan misollardan farqli ravishda *fe'l*ning ravishdosh shakli vositasida yasalgan.

Tahlillarga ko'ra, 200 nafar maktabgacha yoshdagi bola nutqi ustida 100 ta stimul so'z bo'yicha o'tkazilgan tajriba jarayonida 11 ta stimulga nisbatan *ot+ot*, 52 ta stimulga nisbatan *ism+fe'l* tuzilishidagi qo'shma so'z orqali javob berish holatlari kuzatilgan. Shu bilan birga reaksiyalar qatorida *sifat+ot* (5 ta stimul so'zda), *son+ot* (4 ta stimul so'zda), *son+son* (2 ta stimul so'zda), *fe'l+fe'l* (3 ta stimul so'zda) qolipi asosida yasalgan qo'shma so'z shaklidagi javoblar mavjudligi ham aniqlandi. Jumladan, 4 yoshli Saida'zam Saidmannonovga *pitsa* so'zi taqdim etilganda **uchburchak** reaksiyasini bergan. Mazkur qo'shma ot sanoq songa narsa otining qo'shilishi natijasida hosil bo'lgan. Ayni holat 5 yoshli Bahromxo'ja Xo'jayev tomonidan *sakkiz* so'ziga nisbatan **sakkizoyoq** deya berilgan javobda ham uchraydi. *Sifat+ot* qolipli qo'shma so'zlarga misol tariqasida *shokolad* stimuliga berilgan **muzqaymoq** (Shodiya Yunusova, 6 yosh), *qimmat* so'ziga berilgan **qimmatbaho** (Saida'zam Saidmannonov, 4 yosh), *saroy* so'ziga berilgan **oqsaroy** (Abduhakim Ravshanov, 6 yosh), *ona* so'ziga berilgan **oqko'ngil** (Otabek Qodir o'g'li, 5 yosh) javob reaksiyalarini keltirish mumkin. *Son+son* qolipidagi qo'shma so'zlar, asosan, son turkumiga mansub stimul so'zlarga berilgan javoblarda kuzatildi. Aksariyat sinaluvchilarning *yuz* so'ziga nisbatan **ikki yuz**, **bir yuz**, **to'qson to'qqiz**, **to'rt yuz** kabi qo'shma sonlar vositasida taqdim etgan javoblari ushbu fikrimizni tasdiqlaydi. *Fe'l+fe'l* qolipli qo'shma so'zlarda esa bir vaqtning o'zida ketma-ket bajarilgan ikki harakat ifodalangani anglashiladi. Bu turdagi javoblar *baliq*, *banan*, *bo'g'irsoq* kabi stimullarga nisbatan **pishirib yeydi**, **ochib yeydi** tarzida berilgan reaksiyalarda mavjudligi aniqlandi. 26 ta stimul so'zga berilgan javoblar tarkibida qo'shma so'z shaklidagi reaksiyalar mutlaqo kuzatilmadi. *Alisher*, *avtobus*, *avtomat*, *bozor*, *dunyo*, *internet*, *issiq*, *kompyuter*, *laylak*, *mashina*, *metro*, *mushuk*, *non*, *olma*, *osmon*, *qalam*, *quyosh*, *qush*, *reklama*, *sumalak*, *suv*, *televizor*, *tipratikan*, *tog'*, *tosh*, *o'yinchoq* kabi stimullar shular jumlasidandir.


Ma'lumki, kompozitsiya usuli bilan so'z yasalishi deyilganda faqatgina qo'shma so'zlar emas, balki juft so'zlar ham nazarda tutiladi. Boisi, juft so'zlar ham ikki mustaqil so'zning o'zaro birikib, yangi ma'no hosil qilishi asosida vujudga keladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar leksik assotsiatsiyalarining struktur tahlilida stimul so'zlarga juft so'z vositasida javob berish holati kam kuzatilishi aniqlandi. Mazkur turdagi birliklar *daraxt* – **ota-ona**, *oila* – **ota-ona**, *oila* – **opa-singil**, *oila* – **aka-uka**, *qizil* – **rang-barang** kabi assotsiatsiyalarda uchradi. Yuqoridagi fikrni takroriy so'zlar vositasida berilgan javoblarga nisbatan ham aytish mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalar tomonidan, asosan, holat va ovozga taqlidni

bildiruvchi soʻzlar asosida berilgan javoblarda takroriy soʻzlarni uchratish mumkin. Boisi, taqlid soʻzlarda “tovush yoki holatning takrorlanishi shu tovush ramzini takror ishlatish bilan bildiriladi: *ak-ak*, *big'-big'*, *dag'-dag'*, *dir-dir*, *lip-lip*, *milt-milt* kabi. Baʼzan uch takror ham uchraydi: *xa-xa-xa*, *qu-ququ*, *g'it-g'it-g'it* kabi (Rahmatullayev, 2006, 214-bet)”. Masalan, sinaluvchilarga *qush*, *sichqon*, *maymun*, *militsioner*, *mushuk*, *ovoz*, *chaqma-chaqar*, *shokolad* kabi stimul soʻzlar taqdim etilib, shu soʻzlarni eshitganda xayoliga birinchi nima kelgani soʻralganda ularning aksariyati ***qu-qu*** (*qush*), ***vaq-vaq-vaq*** (*qush*), ***chi-chi-chi*** (*sichqon*), ***chip-chip-chip*** (*sichqon*), ***ha-hu*** (*maymun*), ***ha-hu-ha*** (*maymun*), ***vyyu-vyyu*** (*militsioner*), ***myov-myov*** (*mushuk*), ***qa-qa-qa*** (*ovoz*), ***chaka-chaka-bum*** (*chaqma-chaqar*), ***nyam-nyam*** (*shokolad*) kabi javoblarni berganlar. Shuningdek, tajriba jarayonida ayrim stimullarga nisbatan takroriy sifatlar vositasida javob berilgan holatlar ham kuzatildi. Bunga misol sifatida *qor* – ***mayda-mayda***, *yorugʻ* – ***qop-qorongʻu***, ***yop-yorugʻ***, *oʻrmon* – ***qop-qorongʻu***, *yashil* – ***yap-yashil*** kabi juftliklarni keltirish mumkin. Bu oʻrinda takroriy soʻzlar asos qismning aynan yoki oʻzgarishga uchrab takrorlanishidan hosil boʻlgan.

Javob reaksiyasini sodda, qoʻshma, juft va takroriy soʻzlar vositasida taqdim etish holatlarining stimul soʻzlar boʻyicha miqdoriy taqsimoti quyidagi diagramma orqali ifodalandi. (*Tahlillar 100 ta stimul soʻz boʻyicha berildi*)

1-diagramma

Javob reaksiyalarining struktur tuzilishiga koʻra stimul soʻzlar taqsimoti



Xulosa qilib aytish mumkinki, bolalar lisoniy ongida murakkab soʻz shakllarining samarali oʻzlashtirilishi maktabgacha yosh davridan namoyon boʻla boshlaydi. Formal-struktur tahlil natijalari qoʻshma, juft va takroriy soʻzlarning assotsiativ munosabatlarda muntazam va tizimli tarzda qoʻllanishini isbotlaydi. Bu esa maktabgacha yoshdagi bolaning assotsiativ tafakkuri shakllanishida leksik

birlikning struktur xususiyatlari, konstruktiv tuzilishi alohida ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Davlatova, H. (2023). *Bolalar nutqi: psixolingvistik xususiyatlari va shakllanish omillari*. Globe Edit.

Musayeva, N. (2024). *Bolalar kvazidialogik nutqining pragmatik xususiyatlari* (Filol. fan. fals. d-ri diss.). Qarshi.

Қурбонова, М. (2014). *Ўзбек болалар нутқи лексикасининг соқиопсихоллингвистик тадқиқи*. Фан ва технология.

Rahmatullayev, Sh. (2006). *Hozirgi adabiy o'zbek tili*. Universitet.

Sayfullayeva, R., Mengliyev, B., va boshq. (2009). *Hozirgi o'zbek adabiy tili*. Fan va texnologiya.

Шамсиева, М. (2021). *Билингвал болалар нутқининг психоллингвистик тадқиқи* (Филол. фан. фалс. докт. ... дисс.). Тошкент.

Ўзбек тилининг изоҳли луғати (3-жилд). (2006). Ўзбекистон Миллий энциклопедияси.

Chiyabo'ri. (2025, Iyun 16). In *Vikipediya*.

<https://uz.wikipedia.org/wiki/Chiyabo%CA%BBri>

ULUG‘BEK HAMDAM ASARLARIDA KONSEPTUAL RAMZ, METAFORA VA SIMVOL

Ne‘matillo Maxammadjonov*

Annotatsiya

Ushbu maqola Ulug‘bek Hamdamning “Pillapoya” hikoyasi asosida metafora, ramz va ishoralarning badiiy hamda konseptual ifoda vositasi sifatidagi o‘rnini o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqot kognitiv tilshunoslik doirasida olib borilib, badiiy matndagi ramz va metaforalarning mazmun chuqurligini ochishdagi funksiyalari tahlil qilinadi. Pillapoya obrazi inson hayoti, ma’naviy izlanish va yuksalish ramzi sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, ramz va ishoralarning o‘zbek badiiy tafakkurida milliy hamda umuminsoniy qatlamlari ochib beriladi. Tadqiqot metodlari sifatida kognitiv-semantik, lingvomadaniy, badiiy tahlil va qiyosiy yondashuvlardan foydalanilgan. Natijalar zamonaviy konseptual yondashuvni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: metafora, ramz, ishora, konsept, pillapoya, kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyat, badiiy matn, uslub, o‘zbek adabiyoti

Conceptual Symbols, Metaphors, and Signs in the Works of Ulugbek Hamdam

Abstract

The article, based on Ulugbek Hamdam’s short story “Pillapoya”, examines the role of metaphor, symbol, and sign as artistic and conceptual means of expression. The study is conducted within the framework of cognitive linguistics, analyzing the functions of symbols and metaphors in deepening the meaning of the text. The image of the staircase (pillapoya) is interpreted as a symbol of human life, spiritual quest, and ascent. Furthermore, the research highlights both national and universal layers of meaning embodied in symbols and signs in Uzbek literary thought. The applied research methods include cognitive-semantic, linguocultural, artistic analysis, and comparative approaches. The findings may serve as a contribution to the development of a modern conceptual approach in Uzbek literary studies.

Keywords: metaphor, symbol, sign, concept, pillapoya, cognitive linguistics, linguoculturology, literary text, style, Uzbek literature

Adabiy matn inson tafakkurining eng nozik qatlamlarini ifodalashga xizmat qiluvchi noyob hodisa sanaladi. Badiiy asar orqali yozuvchi o‘z shaxsiy dunyoqarashini, hayotiy tajribasini va ma’naviy izlanishlarini umumlashgan shaklda o‘quvchiga yetkazadi. Bunda metafora, ramz va simvol kabi ifoda vositalarining o‘rni beqiyosdir. Ushbu vositalar nafaqat badiiy tasvirni boyitadi, balki inson ongida

* Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti, muhammadjonovnematillo99@gmail.com

chuqur konseptual jarayonlarni uygʻotadi. Shu sababli ularni kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan oʻrganish bugungi adabiyotshunoslik va tilshunoslik tadqiqotlarida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Kognitiv tilshunoslik inson tafakkurining til orqali qanday shakllanishini, abstrakt tushunchalarning qanday ifodalanishini oʻrganadi. Bu jarayonda **metafora, simvol va ramz** muhim konseptual ifoda vositalari sifatida qaraladi (Lakoff & Johnson, 1980). Ular nafaqat badiiy estetik maqsadga xizmat qiladi, balki insonning dunyoni idrok etish shakllarini ham ochib beradi.

Ulugʻbek Hamdamning *“Pillapoya”* hikoyasi bu jihatdan alohida eʼtiborga loyiqdir. Asarda hayotiy yoʻl, ustoz-shogird munosabatlari, ruhiy yuksalish masalalari **pillapoya metaforasi** orqali yoritiladi. Hikoya yozuvchining ustozlariga bagʻishlangani sababli unda **shaxsiy-emotsional qatlam** ham kuchli seziladi. Pillapoya obrazining tanlanishi esa inson hayoti va tafakkuridagi **izlanish, oʻsish va yuksalish konseptlarini** ifodalaydi.

Maqola tayyorlash jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

- **Kognitiv-semantik tahlil** – metafora, simvol va ramzlarning konseptual mazmunini ochish, *“pillapoya”* obrazining inson hayoti va ruhiy yuksalish jarayonidagi maʼnosini aniqlash uchun.

- **Lingvokulturologik yondashuv** – hikoyada qoʻllangan ramz va simvollarni milliy qadriyatlar, ustoz-shogird anʼanalari va madaniy tafakkur bilan bogʻliq holda talqin etish uchun.

- **Badiiy matn tahlili** – Ulugʻbek Hamdamning *“Pillapoya”* hikoyasi va zamonaviy adabiyot namunalaridan foydalanib, ramz va simvollar qoʻllanishini koʻrsatish uchun.

- **Qiyosiy metod** – metafora, simvol va ramzning oʻzaro farqlari hamda umumiyliklarini belgilash, ularning konseptual ifoda vositasi sifatidagi rolini aniqlash uchun.

Tahlil natijasida *“Pillapoya”* hikoyasida quyidagi konseptual ifoda vositalari ajralib chiqdi:

1. Metafora: *“Pillapoya – Hayot yoʻli”*

Hikoya qahramoni pillapoyalardan yuqoriga intiladi, biroq bu intilishning chegarasi yoʻq. Bu tasvir hayotning tuganmas jarayon sifatida metaforik talqinidir:

“Men har qadamda yuqoriga intildim, ammo pillapoyalar tugamas edi.”

Lakoff va Johnson *“hayot – safar”* metaforasini universal model sifatida koʻrsatadi (Lakoff & Johnson, 1980, 52). Ulugʻbek Hamdamda esa bu konsept **pillapoya metaforasi** orqali milliy va ramziy qiyofa kasb etadi. Har bir pillapoya insonning oʻz oldiga qoʻygan yangi sinovini bildiradi.